SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 3
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

O‘ZBEKISTONDA QULOQLASHTIRISH SIYOSATINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

UO‘K 94(575.1)1929/1933

Adizova Shohsanam Shohmahamat qizi

Samarqand davlat universiteti magistranti

E-mail: adizovashohsanam94@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada 1930–1933-yillarda O‘zbekiston SSRda olib borilgan quloqlashtirish siyosatining hududiy xususiyatlari arxiv hujjatlari va tarixiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Siyosatning amalga oshirilishidagi hududiy farqlar xo‘jalik yuritish tizimi, sug‘orishga bog‘liqlik va aholining qarshilik shakllari bilan bog‘liq holda ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar

quloqlashtirish, jamoalashtirish, boy-quloq xo‘jaliklari, maxsus ko‘chirilganlar, Farg‘ona vodiysi, Xorazm, surgun, dehqonlar qarshiligi.

Аннотация

В статье на основе архивных документов и исторической литературы анализируются региональные особенности раскулачивания в Узбекской ССР в 1930–1933 гг. в связи с хозяйственным укладом, зависимостью от ирригации и формами сопротивления населения.

Ключевые слова

раскулачивание, коллективизация, байско-кулацкие хозяйства, спецпереселенцы, Ферганская долина, Хорезм, ссылка, крестьянское сопротивление.

Abstract

Based on archival documents and historical literature, the article analyses regional features of dekulakization in the Uzbek SSR in 1930–1933 in relation to the economic structure, dependence on irrigation and forms of popular resistance.

Keywords

dekulakization, collectivization, bai-kulak households, special settlers, Fergana Valley, Khorezm, exile, peasant resistance.

Kirish

XX asrning 30-yillari boshidagi yoppasiga jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati o‘zbek qishlog‘ining an’anaviy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini tubdan o‘zgartirdi: minglab dehqon oilalari mol-mulkidan mahrum etildi, surgun qilindi yoki noqulay hududlarga ko‘chirildi [1; 2].

Mustaqillik yillarida mavzu bo‘yicha R. Shamsutdinov O‘rta Osiyo respublikalari misolida jamoalashtirish, quloqlashtirish va surgun jarayonlarini keng arxiv manbalari asosida yoritdi [1]. “O‘zbekistonning yangi tarixi”da bu siyosat sovet mustamlakachiligi tizimining tarkibiy qismi sifatida baholandi [2]. Xorijiy tadqiqotchilardan L. Viola maxsus ko‘chirilganlar tizimini [6], S. Keller O‘rta Osiyodagi dinga qarshi kampaniyani [7] o‘rgangan. Biroq quloqlashtirishning hududiy farqlari hali yetarlicha yoritilmagan.

Maqolaning maqsadi – quloqlashtirishning hududiy o‘ziga xosliklarini va ularni yuzaga keltirgan omillarni aniqlash.

Metodlar

Tadqiqotning manbaviy asosini nashr etilgan hujjatlar to‘plamlari tashkil etadi. Bular jumlasiga “Трагедия советской деревни” turkumidagi hujjatlar [3], OGPU Maxfiy-siyosiy bo‘limining 1931-yil va 1932-yil yanvar–mart oylaridagi dehqonlar chiqishlari haqidagi maxsus ma’lumotnomasi [4], shuningdek V. Zemskov e’lon qilgan maxsus ko‘chirilganlar statistikasi [5] kiradi. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning asarlari [1; 2; 6–9] tahlil qilindi.

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-xronologik va statistik metodlarga tayanildi. Sovet davri manbalariga tanqidiy yondashildi, chunki ularda “boy” va “quloq” tushunchalari siyosiy maqsadlarda keng talqin qilingan.

Natijalar

1. Siyosatning me’yoriy asoslari va bosqichlari. Quloqlashtirishning umumittifoq asosi VKP(b) MK Siyosiy byurosining 1930-yil 30-yanvardagi “Yoppasiga jamoalashtirish tumanlarida quloq xo‘jaliklarini tugatish tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bo‘ldi. Unda quloqlar uch toifaga bo‘lingan [3]. Qarorga ko‘ra Zakavkaziye va O‘rta Osiyo ittifoqdosh respublikalaridan har ikki toifa bo‘yicha jami 3 mingga yaqin xo‘jalikni

ko‘chirish rejalashtirilgan [3]. O‘zbekiston KP(b) Markaziy Qo‘mitasi 1930-yil 17-fevralda “Jamoalashtirish va quloq xo‘jaliklarini tugatish to‘g‘risida” qaror qabul qilib, respublikada 17 ta yoppasiga jamoalashtirish tumanini belgiladi [9]. 1931-yil 31-yanvarda jamoalashtirish tumanlaridan quloq va boy unsurlarini ko‘chirib chiqarish haqida qaror qabul qilindi [10].

Jamoalashtirish sur’ati notekis kechdi: 1930-yil martdagi 47 foizdan may oyida aholi qarshiligi tufayli 29 foizgacha tushib, so‘ng yana o‘sdi (1a-rasm) [9].

2. Ko‘lami va surgun yo‘nalishlari. 1930-yilning o‘zida O‘zbekistonda 2648 ta xo‘jalik tugatilgan, ularning aksariyati aslida o‘rta hol va kambag‘al dehqonlarga tegishli bo‘lgan. 1930–1933-yillarda respublikadan 5,5 mingga yaqin xo‘jalik boshqa hududlarga ko‘chirilgan, respublika ichida esa 17 ta quloq qishlog‘i tashkil etilgan [9]. 1930–1931-yillarda O‘rta Osiyodan jami 6944 oila surgun qilingan, ularning yarmiga yaqini Ukrainaga yuborilgan (1b-rasm) [5]. Rossiya va Ukrainadan quloqlar asosan Shimol, Ural va Sibirga jo‘natilgan [6], o‘zbek “boy-quloqlari” esa aksincha g‘arbga, mutlaqo begona muhitga yuborilgan.



1-rasm. O‘zbekistonda jamoalashtirish dinamikasi (a) va O‘rta Osiyodan surgun qilingan “quloq” oilalarining joylashtirilgan hududlar bo‘yicha taqsimoti (b)

3. Hududiy xususiyatlar. Quloqlashtirishning amalga oshirilishi hududning xo‘jalik tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda quloqlashtirish siyosatining hududiy xususiyatlari

Hudud	Xo‘jalik asosi	Siyosatning o‘ziga xosligi	Aholining munosabati
Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon)	Sug‘oriladigan paxtachilik, aholi zich	Yoppasiga jamoalashtirish tumanlarining katta qismi shu yerda; paxta rejasi bilan uzviy bog‘liq	1930-yil fevralida ommaviy chiqishlar [9; 10]
Toshkent	Paxtachilik, bog‘dorchilik, shahar atrofi xo‘jaliklari	Shahar bozoriga bog‘liq xo‘jaliklarning tugatilishi	1930-yil fevralidagi chiqishlar [9]
Samarqand (Zarafshon vohasi)	Dehqonchilik, bog‘dorchilik	Boshqa hududlardan yersiz dehqonlarni ko‘chirib keltirish hududi bo‘lgan [10]	Ommaviy chiqishlar qayd etilgan [9]
Buxoro	Vohada dehqonchilik, cho‘lda chorvachilik	Qatag‘on va surgunlar ijtimoiy elita va ruhoniylarga ham qaratilgan; 1930-yillarda ochlik [9]	Ommaviy chiqishlar qayd etilgan [9]
Xorazm	To‘liq kanal suviga bog‘liq dehqonchilik	Suvdan mahrum qilish majburlash vositasi sifatida ayniqsa samarali bo‘lgan [9]	1930-yil fevralidagi chiqishlar [9]
Qashqadaryo va Surxondaryo	Chorvachilik va lalmikor dehqonchilik	“Boylik” mezoni chorva soni bo‘lgan; chorvaning majburan olib qo‘yilishi va qirilishi [11]	Chorvani so‘yish, sotish, ko‘chib ketish

Paxta mustaqilligining asosiy bazasi bo‘lgan Farg‘ona vodiysida siyosat eng shiddatli tus oldi: 1930-yil fevralida bir qator tumanlarda minglab dehqonlar jamoalashtirishni to‘xtatishni talab qilib chiqqan [10]. Sug‘orma dehqonchilik hududlarida, ayniqsa Xorazmda, kolxozga kirmaganlarni suvdan mahrum qilish va ularga 50 foizgacha

qo‘shimcha soliq solish qo‘llanildi [9]. Janubiy chorvador hududlarda esa dehqonlar chorvani kolxozga topshirmaslik uchun uni so‘yishga yoki sotishga majbur bo‘ldi [11].

Siyosat 1931-yildan keyin ham davom etdi: shu yili O‘zbekiston kolxozlarida 388 ta “aksilinqilobiy boy guruhi” tugatilgan, O‘rta Osiyo bo‘yicha esa kolxozlardan 4582 kishi chiqarib yuborilgan [4]. Shu tariqa quloqlashtirish kolxozlarning o‘z ichidagi “begona unsurlar”ni tozalashga o‘tdi.

Muhokama

Natijalar O‘zbekistonda quloqlashtirish yagona andoza bo‘yicha emas, har bir hududning xo‘jalik va ijtimoiy tuzilmasiga moslashtirilgan holda o‘tkazilganini ko‘rsatadi. Tugatilganlar orasida o‘rta hol va kambag‘al xo‘jaliklarning ko‘pchilikni tashkil etgani [9] reja ko‘rsatkichlarini bajarish uchun “quloq” tushunchasi sun’iy kengaytirilganini tasdiqlaydi [1]. Siyosat dinga qarshi kampaniya bilan ham qo‘shilib ketgan: ruhoniylar va vaqf mulkiga qarshi kurash “sinfiy kurash” sifatida talqin qilingan [7]. M. Kamp va R. Zanka esa jamoalashtirishda mahalliy faollarning roli katta bo‘lganini ko‘rsatadi [8], ya’ni hududiy natijalar mahalliy ijrochilarga ham bog‘liq bo‘lgan.

Xulosa

O‘zbekistonda quloqlashtirish siyosati 1930–1933-yillarda umumittifoq qarorlari asosida, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ikki bosqichda amalga oshirildi. Dastlab, 1930–1931-yillarda dehqon xo‘jaliklarini ommaviy tugatish, mol-mulkini musodara qilish va oilalarni surgun etish kuzatildi. Keyingi bosqichda esa kolxozlarni “boy unsurlar”dan tozalashga e’tibor qaratildi.

Siyosatning hududiy farqlari mahalliy xo‘jalik tizimi bilan bog‘liq edi. Paxtachilik markazi bo‘lgan Farg‘ona vodiysida quloqlashtirish shiddatli kechdi. Sug‘orma dehqonchilik hududlarida suvdan foydalanishni cheklash bosim vositasiga aylangan bo‘lsa, janubiy chorvador hududlarda chorvaning olib qo‘yilishi va qirilishi asosiy oqibatlardan bo‘ldi.

O‘rta Osiyodan surgun qilingan oilalarning qariyb yarmi Ukrainaga yuborilgani mintaqadagi jarayonning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Quloqlashtirishning ko‘lami, hududiy farqlari va dehqon oilalari taqdiriga ta’sirini aniqlash uchun viloyatlar arxivlari asosida chuqur tadqiqot olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O‘rta Osiyo respublikalari misolida). – Toshkent: Sharq, 2003. – 542 b.

2. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.

3. Трагедия советской деревни. Коллективизация и раскулачивание. Документы и материалы: в 5 т. Т. 2. Ноябрь 1929 – декабрь 1930 / под ред. В. Данилова, Р. Маннинг, Л. Виолы. – М.: РОССПЭН, 2000.

4. Спецсправка Секретно-политического отдела ОГПУ о ходе коллективизации и массовых выступлениях крестьянства в 1931 г. – январе–марте 1932 г. [Elektron resurs]. – URL: https://istmat.org/node/37610

5. Земсков В.Н. Спецпоселенцы в СССР, 1930–1960. – М.: Наука, 2003.

6. Viola L. The Unknown Gulag: The Lost World of Stalin’s Special Settlements. – New York: Oxford University Press, 2007.

7. Keller S. To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign against Islam in Central Asia, 1917–1941. – Westport: Praeger, 2001.

8. Kamp M., Zanca R. Recollections of collectivization in Uzbekistan: Stalinism and local activism // Central Asian Survey. – 2017. – Vol. 36, No. 1. – P. 55–72.

9. Ro‘ziyeva H.T. 1925–1941-yillarda o‘tkazilgan yer-suv islohoti, uning og‘ir oqibatlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – Vol. 5, No. 4. – B. 569–576.

10. Назаров Р. Ферганская долина Узбекистана 1929–1953 гг. [Elektron resurs]. – URL: https://proza.ru/2020/12/01/1102

11. “Chorvangni sotmasang, baribir davlat tortib oladi” [Elektron resurs] // Oyina.uz. – URL: https://oyina.uz/uz/article/3656